SIRDARYO VILOYATI XOVOS TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 18 - aprel 115-9-129-Q/22 Xovos tuman hokimligi

loyiha

Xovos tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-apreldagi “Dafn etish va dafn ishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 101-son qarori ijrosiga asosan tuman hududidagi dafn etish joylarini saqlash hamda obodonlashtirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan, **qaror qilaman:**

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tumani hokimining o‘rinbosari S.Po‘latov, tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi (D.Pirmatov)larga:

-fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda qabristonlarni zarur darajada saqlash va obodonlashtirish hamda hasharlar, xotirlash kunlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish;

-sanitariya qoidalari va me’yorlariga qat’iyan rioya etgan holda qabristonlarni ochish va yopishda qonuniylikni ta’minlasin, qabristonlar tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratishni yer to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirsin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (D.Pirmatov) hamda

qabristonlarning ma’muriyati:

-xizmatlar uchun qat’iyan belgilangan tariflar bo‘yicha hisob-kitob qilgan holda fuqarolarning qabristonda ko‘rsatiladigan xizmatlarga doir buyurtmalarini o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini;

-qabristonlarda byustlar, haykaltaroshlik yodgorliklari yoki alohida arxitektura shakliga ega bo‘lgan inshootlarni o‘rnatish, obyektlarni saqlash va ulardan foydalanish qoidalariga rioya etilishini ta’minlasin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (S.Maxmudov) mazkur qaror hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari U.Shadiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **U.I. Kamolov**

Xovos tuman hokimining
2022 yil 18 apreldagi
115-9-129-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Xovos tumanidagi qabristonlarda dafn etish xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha

TARIFLAR MIQDORI

T\r	Xizmat turi	Oʻlchov birligi	BHMga nisbatan (foiz xisobida)
1.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar katta oʻlchamda)	1 oʻringa	50%
2.	Tegishli diniy konfessiya qabristonida vafot etgan yaqinlari va qarindoshlarini dafn etish uchun uchastka olish	1 oʻringa	50%
3.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar kichik oʻlchamda)	1 oʻringa	30%
4.	Qabr uchun (diniy mansubligidan qatiy nazar 3 yoshgacha)	1 oʻringa	bepul
5.	Marosim xizmatlaridan foydalanish	1 kunga	bepul
6.	Qabrga va qabr usti yodgorliklariga qarash uchun qabriston anjomlaridan foydalanish	1 oʻrin/kunga	bepul

Izoh: *Xovos tumanida qabristonlarda dafn etish xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha tariflar miqdori* BHM *ortishiga mutanosib ravishda dafn etish xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha taʻriflar miqdori ham ortadi.*